

“Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturi ijrosi hamda past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformatorlarni yangilash chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumot 01.04.2021 yil holatiga

O'zbekiston Rkspublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga to'g'risida”gi 2021 yil 3 fevral' PF-6155-son Farmoni va 2021 yil 18-19 mart kunlari Toshkent viloyatiga tashrifi davomida va Halq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” Dasturlarini uzviy davom ettirish orqali hududlarning yo'l transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikasiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish hamda u asosida aholining farovonligi va turmush tarzini yanada yuksaltirish maqsadida, viloyatdagi 133 ta “og'ir” mahalla fuqarolar yig'inlaridan 2021 yil “Obod qishloq” dasturiga tumanlardan 32 ta va shahar fuqarolar yig'inlaridan “Obod mahalla” dasturiga 15 ta, jami 47 ta mahallalar kiritildi.

Tuman (shahar)larda shakllangan ro'yhatdan 2021 yil davlat dasturiga kirmagan 86 ta mahalla fuqarolar yig'inlarini 2022-2023 yillarga mo'ljallangan “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturiga kiritish rejalashtirilmoqda.

Jumladan:

“Obod qishloq” dasturi doirasida 2021 yilda qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan 32 ta mahallalarning manzilli ro'yhati

Bekobod tumani-Achamayli, Pahtakor MFY,

Bo'ka tumani-Dashtobod, Moytepa (Samarqand qishlog'i), Mirzabek MFY

Bo'stonliq tumani-Talpin, Qoramazor MFY

Zangiota tumani-Namuna, Sahovat MFY

Qibray tumani-Ho'jaqo'rg'on, Chinobod MFY

Quyichirchiq tumani-Yulduz, Mevazor MFY

Oqqo'rg'on tumani-Madaniyat, Eltamg'ali MFY

Ohangaron tumani-Gulobod, Qiziloy MFY

Parkent tumani-Bo'ston, Surhi MFY

Piskent tumani-Oqtom, Chimqo'rg'on MFY

Toshkent tumani-Chuvalachi, Kensoy MFY

O'rtachirchiq tumani-Halqobod, Yangiobod MFY

Chinoz tumani- Gulzorobod, Navro'z MFY

Yuqori Chirchiq tumani- Qangli, Qo'rsoy, Buloqboshi MFY

Yangiyil tumani-Nihol, Said-ota MFYlari.

“Obod mahalla” dasturi doirasida 2021 yilda qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan 15 ta mahallalarning manzilli ro'yhati

Angren shahri-Taraqqiyot, Istiqlol MFY.

Bekobod shahar- Taraqqiyot, Buloqariq MFY.

Nurafshon shahri- Oppoq, Navro'z, Bobur MFY

Olmaliq shahri- Olmaliqsoy, Zarbuloq MFY.

Ohangaron shahar- Nog'ayqo'rg'on, Guliston MFY

Chirchiq shahri- Umid, Yoshlik MFY

Yangiyo'l shahri- Qovunchi tepa, Baht MFY

Ijtimoiy-iqtisodiy holati eng og'ir bo'lgan 10 ta qishloq va mahallalar ro'yhati va ularda olib borilgan ishlar

1. **Bekobod tumani** “Pahtakor” MFY
2. **Bo'ka tumani** “Dashtobod” MFY
3. **Bo'stonliq tumani** “Talpin” MFY
4. **Qibray tumani** “Jo'jaqo'rg'on” MFY
5. **Quyi Chirchiq tumani** “Yulduz” MFY
6. **Ohangaron tumani** “Gulobod” MFY

(“Yangiqishloq”) aholi punkti

7. **Parkent tumani** “Bo'ston” MFY
8. **Piskent tumani** “Oqtom” MFY
9. **Chinoz tumani** “Navro'z” MFY
10. **Yangiyo'l tumani** “Nihol” MFY

Qibray tumani “**Ho'jaqo'rg'on**” MFY hududida Ho'jaqo'rg'on, Tantana, Baraka, Tabassum, Hotira, Adolat, Baraka, jami 7 ta ko'chalarini mavjud bo'lib, obodonlashtirish va ta'mirlash ishlari olib borildi. **Tantana** ko'chasining **4-tor** ko'chasi va asosiy qismiga **2500** metr masofasiga to'kilgan shebenni yoyish ilari olib borildi, ushbu hududidagi **8-ta** avariya holatidagi ichimlik suv quvurlari ta'mirlanib, baraka asosiy ko'chasining zovurlari tozalanib **82 ta** honadonlar obodonlashtirilib **2 000** dan ortiq manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekildi.

Mahalla binosining tashqi devor oldidan pensionerlar foydalanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida **28 metrlik** kichik yo'lka tashkil qilindi, mahalla hududidagi **8-ta** honadonni ikki bosqichli gaz bosimiga o'tkazish uchun jami **6 ta** reduktor gaz regulyatorlari hamda jami **700** metr gaz quvurlari kraska qilindi. **Ho'jaqo'rg'on** jo'me masjidining devor qismini shuvoq ishlari olib borilib, masjidning **25 metr** va mahalla binosi panjaralarida bo'yash ishlari olib borilib, archa hamda manzarali ko'chatlar ekildi. Mahalla hududidagi **Baraka** ko'chasiga kirib keluvchi gaz quvuri ta'mirlandi, **Baraka** ko'chasining **8-tor** ko'chasiga jami **160** metr honadonlarga gaz quvurlari ulash uchun olib kelindi. **Ho'jaqo'rg'on** jo'me masjidining fasad qismiga rang berilib masjidning kirish qismi oldi tamoni shifti plastik bilan qoplandi. **Baraka** ko'chasidagi noqonuniy qurilmalarni buzib, tozalash uchun texnikalar yordamida ishlar olib borildi.

Bo'stonliq tumani “**Talpin**” MFYda “Og'ir hudud” dasturi bo'yicha chora - tadbirlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Bo'stonliq tumani hokimi - Fuqaro muhofazasi boshlig'ining **2021** yil **10** fevraldagi **4-sonli** buyrug'iga asosan, “**Talpin**” MFY hududida aholi turmush tarzini yaxshilash, mahalla ko'chalarini obodonlashtirish maqsadida, tuman hokimligi, tuman FVB, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi, mahalla

va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi hodimlari hamda Mazkur tadbirga Chirchiq shahridagi harbiy qismlardan har kuniga **97 nafar** harbiylar va Bo'stonliq tumani obodonlashtirish boshqarmasi hodimlari bilan birgalikda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

“Talpin” Mahalla fuqarolar yig'inida **3 988 metrlik** (lotok) ariqlar tozalandi va ushbu ariqlardan chiqqan chiqindilar olib chiqildi, **500 metrlik** ichimlik suv quviri yotkazildi. **38 ta** tungi yoritgichlar yangisiga almashtirildi. **4 ta** ko'chalarning **3 820 metriga** qum-shag'allar yotkazildi va ushbu yotkazilgan qum-shag'allar greyder va harbiy hizmatchilar yordamida tekislandi. **6 ta** honodoning tomorqalari obodonlashtirildi, daraxtlariga shakl berilib, oqlandi, shundan **1 ta** honodoning fasad qismi oqlandi. **1 500 metr** uzunlikdagi gaz quvirlarini bo'yash ishlari amalga oshirildi. Hududda **1 ta** qabriston mavjud bo'lib ushbu qabriston obodonlashtirildi va daraxtlariga shakl berilib, oqlandi. **8 nafar** fuqarolar tomonidan noqonuniy egallab olingan erlarning to'siqlari ochilib ekilgan daraxtlariga shakl berildi va ushbu joylar obodonlashtirildi. Tadbirlarga **41 ta** mahsus texnika jalb qilindi.

Chinoz tumani “Navro'z” MFYda **Samarqand** ko'chasi, **Yoshlik** ko'chasi va **Hurriyat** ko'chalariga **680 m** shag'al yotkazildi, honadon tomorqalari chopilib ekin ekish uchun tayorlandi va ko'cha yuzlaridagi **1 200 ta** daraxtlar oqlanib shakl berildi. **Orasta** ko'chasidagi **72 ta** honadonlarini elektr energiya manbaini yaxshilash maqsadida **1 ta** transformator qo'yildi.

Bo'ka tumani “Dashtobod” MFY **6 ta** ko'cha mavjud bo'lib, har bir ko'chaga **18-22** mashinadan shag'al tashlanib, yo'llar tekislandi. MFY hududidagi ko'chalarga **180** tup manzarali, **1 100** mevali va **1 860** tup gul ko'chatlari ekilib, **2 400** dona daraxtlarga shakl berildi. **3,6** km ariq va zovurlar tozalanib, **121** tonna chiqindilar olib chiqib tashlandi. **Dehqonvul** va **Mingterak** ko'chalaridagi **2 ta** ko'prik to'liq ta'mirdan chiqarildi. **Mingterak** va **Gulzor** ko'chalaridagi elektr transformatorlar to'liq ta'mirdan chiqarildi. **Gulzor** ko'chasidagi **35** dona, **Dehqonvul** ko'chasidagi **25** dona eskirgan elektr simyog'ochlar almashtirildi. Ko'chalardagi **800** metr gaz quvurlari ta'mirlandi va bo'yaldi. **Gulzor** ko'chasidagi **3 ta** honadon homiylar hisobidan fasad qismi ta'mirdan chiqarib berildi.

Piskent tumanida “Obod qishloq” dasturi chora-tadbirlarini ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi aholi uchun dolzarb muammolari ko'p bo'lgan og'ir hududlar ro'yhatiga kirgan **“Oqtom”** mahalla hududida jami **15 ta** ko'chalar mavjud bo'lib, Bodomzor, Navro'z, Vodiy ko'chalarida obodonlashtirish va ta'mirlash ishlari olib borildi, ko'chalardagi ariq va zovurlari tozalanib, **82 ta** honadonlar obodonlashtirilib **1 200** dan ortiq manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekildi.

Mahalla binosini tashqi ko'rinishi oqlanib eshik va derazalar kraska qilindi. Hududagi qabriston devor qismini suvash ishlari, panjaralarida bo'yash ishlari va archa hamda manzarali ko'chatlar ekildi.

Ohangaron tumani “Gulobod” MFY **Charog'on** va **Istiqlol** ko'chasining **2 km** yo'l qismiga shag'al solindi va **22 ta** simyog'ochlar temir- beton simyog'ochlariga almashtirildi. **Gulobod** mfyga qarashli Yangi qishloq suv saqlagich ta'mirlanib, bo'yoq qilindi. Atrof muhitda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi. **30-40 tonna** mahalliy chiqindilar olib chiqildi. Aholi honadonlarida daraxtlarga ishlov berish ishlari olib borilmoqda. Ihsiz bo'lgan yoshlar Sh.Suyunboev va F. Begimovlarga **1 gektar** er maydoni ajratib berildi.

Bekobod tumani “Pahtakor” MFYning **Chegarachilar** ko'chasida **3 km** masofaga shahal yotqizildi. **1 050** dona mevali va manzarali ko'chatlar ekilib, **2 000** dona mevali ko'chatlarga ishlov berildi. **70 ta** honadoning fasad qismi ta'mirlandi. Ko'chalar kesimida jami **1 700 metr** zovur va ariqlar tozalanib, **8 tonna** chiqindilar olib chiqib ketildi. Muruvvat ko'chasidagi **6 ta** elektr simyog'ochlar o'rniga yangi temir beton simyog'ochlar qo'yildi, ulardan **4 tasiga** kechki yoritgich chiroqlari o'rnatildi. MFY hududidi **1 ta** qabriston bo'lib, uning **1,2 gektar** er maydoni obodonlashtirildi. MFY binosining tom qismi ta'mirlandi. Shu kunga qadar jami MFY hududidagi **2 560** gektar er maydonlari obodonlashtirildi.

Quyichirchiq tumani “Yulduz” mahalla fuqarolar yig'inida ko'chalardagi ta'mirtalab gaz quvurlari qayta ta'mirlanib, **0.5 km** uzunlikdagi quvurlar bo'yaldi. **100 tup** daraxtlarning taglari oqlandi. Aholi

tomorqalarida va yo'l chekkalariga **300** tupdan ortiq darahat ko'chatlari, **200** tupdan ortiq gullar ekildi. **3.7 km** uzunlikdagi ichki ariqlar tozalandi. **2.5 tonna** miqdordagi chiqindilar chiqarib tashlandi. **Oqchagal, Qoramozorbuva** qabristonlarida jami **1 gektardan** ortiq maydoni obodonlashtirildi. Mahalladagi **1.5 gektardan** ortiq maydon tozalanib, obodonlashtirildi.

Parkent tumani "Bo'ston" MFYda 2021 yilda mahalla fuqarolar yig'ini hududdida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmokda. Shundan, elektr tarmoqlari tortish va almashtirish, bo'yicha **3 dona** tayanch ustunlar almashtirildi, ichimlik suv tarmog'ini ta'mirlash bo'yicha jami **500 metr**, gaz tarmoqlari ta'mirlash bo'yicha jami **300 metr** hamda **0,5 tn** suyultirilgan gaz tarqatildi. Ichki avtomobil' yo'llari, yo'l ko'priklari va boshqa yo'l infratuzilmasi ob'ektlarining holatini o'rganish natijasida **530 m** yo'llar qum-shag'al aralashmasi va chaqiq tosh yotqizish yo'li bilan ta'mirlandi. Ijtimoiy soha ob'ektlari, shu jumladan, maktabgacha ta'lim, tashkilotlari va sport ob'ektlari, oliy ta'lim va sog'liqni saqlash (QVP, oilaviy poliklinika va tibbiyot punktlari va boshqalar)muassasalarning joriy holatini o'rganish natijasida 2 ta muassasalarda muammolar aniqlandi hamda **2 ta** muammoli holatlar bartaraf etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasidan birlashtirilgan **100 nafar** yong'in-qutqaruvchilar va tuman tashkilotlari bilan birgalikda tumanidagi har bir mahallalarga jalb etilib, obodonlashtirish ishlari ya'ni ko'kalamzorlashtirish, mahalla hududidagi ichki yo'llarni chiqindilardan tozalash, darahatlarni oqlash va shakl berish va boshqa bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangiyo'l tumani "Nihol" MFYda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga **250** nafar hasharchilar **va 15 ta** mahsus avtomobillar jalb etilib, **2 km** masofadagi ko'chalarga shag'al yotqizildi, **3 ta** qabristonlarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari tashkil qilindi. Undan tashqari o'ta og'ir sharoitda yashayotgan yordamga muhtoj oilalarning honadonlari va fasad qismi ta'mirlab berildi, **3.5 km** masofadagi ariq va zovurlar tozalandi va **12.3 t** chiqindilar olib chiqib tashlandi. **450 tup** mevali va manzarali darahtlar ekildi, **2 ta** chiqindihonalar tartibga keltirilib ta'mirlandi, **27 ta** honadonlardagi kam taminlangan tomorqa egalarining er maydonlariga ishlov berishda ko'maklashildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga **360 ta** mevali va manzarali darahat ko'chatlari bepul berilib, **6 ta** honadonlarga issiqhonalalar qurib berildi.